
"Yoshlar oqshomi" tadbirlari shahrimizning iqtidorli yoshlarini bir maqsad yo'lida birlashtirmoqda

Ayni daqiqalarda 1-sektor hududidagi "Istiqlol" mahalla fuqarolar yig'inida "Yoshlar oqshomi" tadbiri o'tkazilmoqda. Yoshlar yetakchilarining sa'y-harakatlari bilan har bir mahallada iqtidorli va iste'dodli yoshlar, mohir sportchilar, qo'shiqchi-yu raqqosalar hamda so'z ustalari bir maqsad yo'lida birlashdilar.

"Yoshlar oyligi" doirasida o'tkazilayotgan tadbirlarda ana shunday faol yoshlar sahna markazida o'z iste'dodlarini namoyish etmoqdalar.

Doimo yonida, mahallasida bo'lgan, tanish chehradagi yoshlarning iste'dodidan bahramand bo'layotgan keksa-yu yosh bugun ular bilan chin ma'noda faxrlanmoqda.

2022-06-27 09:20:04